

ISMOIL OLLABERGAN – O’TKIR QALAM SOHIBI

Bardiyeva Gulasal Umidbek qizi

Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti

Annotatsiya

Maqolada Ismoil Ollabergan ijodiy faoliyati va hayoti haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: shoir, yozuvchi, ijodiy faoliyat, hikoyalar, she’rlar

Abstract

The article provides information about Ismail Ollabergan’s creative activity and life.

Keywords: poet, writer, creative activity, stories, poems.

Абстрактный

В статье представлена информация о творческой деятельности и жизни Исмаил Оллабергана.

Ключевые слова: поэт, писатель, творчество, рассказы, стихи.

Hamмамizga ma’lumki, azal-azaldan Xorazm buyuk ijodkorlarga, isde’dodli shoir-u yozuvchilar, turli sohalarning yetuk kashfiyotchilariga boy zamindir. Shunday Turonzamin vohamizning yana bir iste’dodli vakillaridan biri Ismoil Ollabergandir. Adabiyotning turli janrlarida muvaffaqiyat bilan qalam tebratgan ijodkor tilining shiradorligi, o’zining she’rlarida serjilo ma’nolar ifodasini ko’rsatganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Ismoil Ollabergan 1957-yil 10-mayda Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi Qoraqosh qishlog’ida tavallud topgan. 1981-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedogogika instituti (hozirgi universitet)ning Filologiya fakultetini bitkazgan. 1975-yildan buyon matbuot nashrlarida ishlab, badiiy ijod bilan shug’ullanib kelgan. U “Shonli mehnat”, “Xorazm ziyokori” gazetalariga chorak asr davomida muharrirlik qilib, turli nashriyotlarda faoliyat ko’rsatgan. O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi “Ijod” jamoat fondi viloyat bo’limiga rahbarlik qilgan. O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi bo’lgan. O’ndan ortiq she’riy va nasriy kitoblari e’lon qilingan.



Ismoil Ollaberganovning ijodiy faoliyatini o'rganar ekanmiz, buyuk ijodkorni bir paytning o'zida ham yozuvchi, ham shoir ekanligiga guvoh bo'lamiz. Shoirning o'zi ham she'riyat olamiga qadam qo'yishini shunday izohlaydi:

“Xullas, men she'r yozishdan, ularni tahririyatlarga olib borishdan charchamadim. Nihoyat, 8-sinfda o'qiyotganimda Xonqa tumanidagi “Shonli mehnat” gazetasida birdaniga ikkita she'rim- “O'qituvchimga” va “Do'stlik” sarlavhali she'rlarim e'lon qilindi . Bundan ruhlanib yanada ko'proq yoza boshladim¹.”

Shuningdek, ijodkor o'z faoliyatining boshlanishi haqida yana shunday izohlar ham beradi:

“Nasrdagi izlanishlarimda esa menga mashhur turk yozuvchisi Aziz Nesin , chex hajvchisi Bravislov Nushich, rus hajvchisi Mixail Jvanskiy , o'zbek adiblaridan Said Ahmad, Nosir Fozilov, Sa'dulla Siyoyev, Ne'mat Aminov, Nurali Qobul, O'tkir Hoshimovlar g'oyibona ustozlar hisoblanadi. Qizig'i shundaki, men ijod olamiga she'rlar yozish bilan kirib kelgan bo'lsam-da, birinchi kitobim – “Xatoboyning sarguzashtlari” nasriy asari edi².”

Demak, ijodkorning ilk kitobi- “Xatoboyning sarguzashtlari” qissasi ekan. U nasrda va nazmda birdek qalam tebratgan is'tedod sohiblaridan biri desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Ismoil Ollabergan o'zining “To'y noni”, “Nom chiqargan hofiz”, “Mening tarjimon bo'lganim” kabi nasriy asarlari, “Bolalar she'riyati” nomli bolalarga bag'ishlangan she'riy kitoblari bilan mashhur. Uning hikoyalari va she'rlari ifodaning ta'sirchanligi va tasvirning aniqligi, satrdagi so'zlarning qo'llanilishidagi mohirlik bilan bevosita aloqadordir.

Ijodkorning “To'y noni”³ deb nomlangan to'plami yumoristik qissa , hikoya va hajviyalar jamlangan asari hisoblanadi. Yozuvchi mazkur to'plamini 60 yoshini qarshilagan paytida tuzganligi haqida ma'lum qiladi. Adibning ilk yumoristik qissasi- “Xatoboyning sarguzashtlari” asari ham shu kitobidan o'rin olgan.

Ismoil Ollabergan asarlarida o'z mulohazalari, ibratga to'la , bebaho fikrlari yoritilgan. Jumladan, “Qanot chiqargan hofiz” hikoyasida ham buning yaqqol isbotini ko'rish mumkin. Hikoya voqealari to'y tasviri va to'yga borgan kishining ichki xayollari, o'y-fikrlari asosida kechadi. Asar qahramonining ruhiyatida to'ya nogironligi sababli o'rnidan qo'zg'almay qo'shiq kuylagan hofizni manman ,

¹ “Dil bazmi” kitobi. Jamoa to'plami. “Xorazm yoshlari”. NMU. 2020-yil. B.-128.

² “Dil bazmi” kitobi. Jamoa to'plami. “Xorazm yoshlari”. NMU. 2020-yil. B.-128.

³ I. Ollaberganov. Urganch: “Xorazm” nashriyoti, 2018- y. 400 bet. KBK 84 (5-U) 7.



kibrlangan deb o'ylaganidan, qisqa fikrlaganidan afsuslanib, uyalish holati kechadi va hikoya oxirida hofiz uning tushida qanot chiqarib ko'klarga parvoz qilishi tasvirlanadi. Bu hikoyada yozuvchi qisqa satrlar orqali teran ma'no ifodalash mahoratini ko'rsatib bergan. Asardan olingan quyidagi diltortar misralar ham buni isbotlaydi:

“Xayol degan yomon narsa. Bir ilakishsa, ilakishaveradi. Uyga kelib ham to'ydagi nogiron qo'shiqchi haqidagi hayollardan qutila olmadim. Hech kimga nafi tegmaydigan, sog'lom oyoqlari bo'la turib, gandraklab yurgan Eshim piyondan ijirg'andim. Shunday ajoyib ovozli san'atkorning esa imkoniyatini cheklab qo'ygan bevafo dunyodan hafa bo'lib ketdim⁴.”

Ismoil ollabergan o'zining shoirligi bilan ham tahsinga sazovordir. Uning she'rlari, asosan, bolalarga bag'ishlangan bo'lib, “Yang'oq”, “So'rab nima qilasiz”, “Sababi”, “Bobom”, “O'rnak olsang bo'ladi”, “Odobli qiz”, “Nodir maslahat”, “Xulosa shuki” kabi bir qator she'rlari “Bolalar she'riyati” to'plamidan joy olgan. Shoirning quyidagi “Ba'zan...” she'rida yozuvchi bolaning oddiy savoliga javob berish orqali katta haqiqatni ochib bergan.

Multifilm ko'rib bo'lgach,
Savol berib qoldi Mardon:
-Aying menga, qay biri zo'r,
Shum tulkimi yoki quyon?

-Biram qiziq bolasanki,
So'roqlaring qiyin, dushvor.
Quyong bo'lar tulkilar ham,
Ba'zan do'ppi kelganda tor⁵!

Ismoil Ollabergan ijodiy faoliyatini o'rganar ekanmiz, uni buyuk ijodkor, zamonaviy adabiyotimiz rivojiga sezilarli hissa qo'shgan adib deya olamiz. Ismoil Ollabergan 2021-yilda “Xalqaro Turon Fanlar Akademiyasi Akademigi” unvoniga ega bo'lgan. “Amir Temur” ko'krak nishoni bilan taqdirlangan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Ismoil Ollabergan 2022-yil 6-dekabrda vafot etgan.

Ijodkor o'zining o'nlab kitoblari, she'rlari, hikoa va qissalari bilan xalqimizning ardoqli va sevimli yozuvchisi bo'lib qolaveradi, Xorazm adabiyotining yetakchi vakillaridan biri sifatida faxr bilan tilga olinadi.

⁴ “O'zbek adabiyoti va san'ati” gazetasi. 2012-yil, 16-son.

⁵ “Bolalar she'riyati” to'plami. B.-2.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Dil bazmi” kitobi. Jamoa to’plami. “Xorazm yoshlari”. NMU. 2020-yil. B.-128.
2. I. Ollaberganov. Urganch: “Xorazm” nashriyoti, 2018- y. 400 bet.KBK84(5-U) 7.
3. “O’zbek adabiyoti va san’ati” gazetasi. 2012-yil, 16-son.
4. “ Bolalar she’riyati”to’plami. B.-2.

